

References

1. Кочеев А.Б. Ногайско-русские отношения в XV - XVIII вв. Алма-Ата: «Наука», 1988.
 2. Иванов П.П. Очерки истории каракалпаков. // Материалы по истории каракалпаков // Сборник. Труды ИВ АН ССР, 1935.
 3. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. - М.Л. : Изд АН ССР, 1950.
 4. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. - М.: Изд-ская фирма «Восточная литература РАН», 2001.
 5. Ибн Арабшах. Амир Темир тарихи. - Тошкент: «Меҳнат», 1992.
 6. Бартольд В.В. Сочинения, Т. V, // Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. - М.: Издательство «Наука», 1968.
 7. Бартольд В.В. Сочинения, Т. V, 1968.
 8. Ибн Арабшах. Амир Темир тарихи.
 9. Егоров В.Л. Историческая география Золотой Орды в XII-XIV вв. - М.: «Наука», 1975.
 10. Идэгэй. - Казан: ТКН, 1988.
- РЕЗЮМЕ.** Ushbu ma'ruzada "Edige" dostonining milliy variantlarida o'z ifodasini topgan milliy istiqlol g'oyasining qiyosiy tipologik tahlili berilgan.
- РЕЗЮМЕ.** В данном докладе даётся сравнительно-типологический анализ идеи национальной независимости, которая находит отражение в национальных версиях эпоса «Едиге».
- SUMMARY.** This report provides a comparative typological analysis of the idea of national independence, which is reflected in the national versions of the Edige epic.

QORAQALPOQ XALQI VA JAHON XALQLARINING OG'ZAKI IJODIDAGI MUSHARAK JIHATLAR

G.Allamberganova – mustaqil tadqiqotchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: folklor, turkiyshunoslik, tarjimalar, Pinar Fedakar, tahlil, genezis, umumiy jihatlar.

Ключевые слова: фольклор, тюркология, переводы, Пинар Федакар, анализ, генезис, общие аспекты.

Key words: folklore, Turkic studies, translations, Pinar Fedakar, analysis, genesis, general aspects.

Qoraqalpoq xalq o'zaki ijodi, umumturkiy, shuningdek butun dunyo xalqlari folklori bilan ham musharak jihatlariga ega. Bugungi kunda qoraqalpoq folklorini mazkur nuqtai nazardan o'rganish, tahlil qilish muhim masalaga aylanmoqda. Shu masalalar doirasida turkiyal olimlar qoraqalpoq og'zaki adabiyoti namunalari bo'yicha tarjimalar ishlash bilan birga, maqolalar, kitoblar e'lon qildi. Masalan, "Qirg' qiz" dostoni Turk tilida ilm-fan doktori Jeyxun Vedat Uygur tomonidan 2007-yili Ankara shahrida nashr qilingan bo'lsa, Biroq, Turk olimlari tomonidan bu boradagi maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari endi qo'lga olinmoqda. Xususan, Turkiyal olimlardan Chise Sulver Rahmani «Go'rug'li» dostonining qoraqalpoq varianti Avezxan bo'limi (izohlar-matnlar)» [4], Zeynep Begum Ok «Ko'rug'li» dostonining Avezxan, Arabiy -Rayhon, Qirmendali, Bazirgen bo'limlari (izohlar-matnlar)» [6], Mehmet Serdar Kaygısız «Qoraqalpoq turklarining Er Ziywar dostoni (izohlar-matnlar)» [2] bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi. Shu jumladan, Pamukkale universiteti Turk tili va adabiyoti shu'bası toyanish doktoranti Sheyma Gurleyen qoraqalpoq xalq dostoni «Maspatsha» dostonining tili masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot isharini olib bormoq [5; 16-21]. Tenizli shahrida joylashgan Pamukkale universiteti tadqiqotchilaridan Ismayıl Gokche-qoraqalpoq jumboqlari, Ayshegul Imez va Behiye Kafa qoraqalpoq maqollari, Sezgiy Balı qoraqalpoq afsonalari va anekdotlari, Sebel Dolı «Yusup Zilyxa», Okan Akkaya «Jahansha», Osman Atalay «Er Ziywar», Aliy Chetin «Dawletiyarbek», Ishilay Dorgı ham Awren Ozdamarlar «Qirg' qiz», Shabnem Dönmez «Qanshayım ham Qurbanbek», Umrın Erdemir ham Yashar Gezel «Edige», Bakiye Qaragöz «Alpamis», Ayshe Sawran «Qoblan», Fayiza Turgut «Yusup-Axmet», Chetin Yalchin «Maspatsha», Arapat, Yirtji «Hurliha-Hamre», Suna Akar «Munliq-Zarlıq» dostonlarining variantlari bo'yicha tarjimalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib bormoqda [1].

Dengizli shahrida joylashgan Pamukkale universiteti tadqiqotchilari tomonidan qoraqalpoq folklori namunalari bo'yicha yigirmaga yaqin ilmiy faoliyatlar ishlandi. Belgili jurnalist va folklorshi Seydin Amrlannın «Erkin Qoraqalpog'iston» gazetasi muxbiriga bergan suhbatidagi ma'lumotlarga qaraganda ilmiy faoliyatlar olib borgan olimlardan Ismayıl Gokche-qoraqalpoq jumboqlari, Ayshegul Imez va Behiye Kafa qoraqalpoq maqollari, Sezgiy Balı qoraqalpoq afsonalari va anekdotlari, Sebel Dolı «Yusup Zilyxa», Okan Akkaya «Jahansha», Osman Atalay «Er Ziywar», Aliy Chetin «Dawletiyarbek», Ichilay Dorgı va Awren O'zdamarlar «Qirg' qiz», Shabnem Dönmez «Qanshayım va Qurbanbek», Umrın Erdemir va

Yashar Kezel «Edige», Bakiye Tiyragöz «Pahlavonamis», Ayshe Sog'lomran «Qoblan», Fayiza Turgut «Yusup-Axmet», Chetin Yalchin «Maspatsha», Arapat Yirtji «Hurliha-Hamre», Suna Akar «Munglik-Zarlıq» dostonlarining variantlari bo'yicha tarjimalari va ilmiy faoliyat olib bormoqda.

Turkiyaning Izmir shahridagi Egey universiteti qoshidagi Turk dunyosini tadqiq qilish instituti dotsenti, doktor Pinar Fedakarning 2016-yili Anqarada "Amerika Yerlilari ve Karakalpak Turklerinin Efsaneleri. Karşılaştırmalı Bir İnceleme" (*Amerikalik hindular va Qoraqalpoq afsonalari. Qiyosiy sharh*) nomli kitobi chop qilindi. Ushbu kitob keng jamoatchilik o'rtasida katta qiziquvchilik uyg'otdi.

Pinar Fedakarning 2008-yili bosmadan chiqqan "Karakalpak Efsaneleri (inceleme-metinler)", ya'ni, "Qoraqalpoq afsonalari (sharh-matnlar)" nomli kitobi ham bosmadan chiqqandi. Tan olish kerak, bu safar "Muallif nima uchun qoraqalpoq afsonalari bilan amerikalik hindular afsonalarini qiyosiy tadqiq qilgan ekan?" degan savol ko'pchilikni qiziqitirib qo'ygan edi [3].

Fedakar xonimning fikricha, amerikalik hindular afsonalari va qoraqalpoq afsonalarining bir-biriga mos jihatları ko'p. Masalan, qoraqalpoqlarda (*balki ko'pchilik turkiy xalqlarda ham – Ye.Q.*) "Yilga talashuv" afsonasi motivlari hindularning "Mavsumlarni aniqlash" afsonasi bilan nihoyatda o'xshash. Ikkalasida ham hayvonlar yilga yoki mavsumga talashadi. Kitobda bunday misollar juda ko'p. Bu esa, ikkala xalqning mifologik qarashlari bir-biriga monandligidan dalolat beradi.

Endi haqli bir savol tug'iladi: modomiki, shunday ekan, bizning amerikalik hindular bilan yaqinligimiz bo'lganmi?

So'nggi paytlarda turkiyshunos olimlar "Amerikaning tub aholisi qadimiy turklarmi?" degan katta bir gipoteza ustida bosh qotirishmoqda. Ushbu farazga ko'ra, bundan 10 ming yillar muqaddam Oltoy o'lkasida yashagan turklarning qadimiy ajdodlari (prototurklar) ovga chiqib, muz qotgan Bering bo'g'ozı orqali Alyaska yerlariga o'tib ketishadi. Keyin muzlar erigach, ortga qayta olishmaydi, qolaversa, yangi yerlarda yovvoyi hayvonlar va qushlar ko'p bo'lgani sababli o'sha hududlarda umrbod yashab qolishadi.

Boshqa bir manbada turklarning qadimiy ajdodlari u tomonlarga bir necha asrlar davomida asta-sekin ko'chib o'tgani tilga olingan. Ba'ziları Sibirda yashab qolgan bo'lsa, ayrimlari Bering bo'g'ozı orqali o'tib ketgan. Ular 25-50, hatto 100 ming yillar avval ko'cha boshlagan, degan ilmiy taxminlar ham mavjud.

Олимлар америкалик hindular bilan turkiy xalqlar lug'atlarida, urf-odatlar va e'tiqodlarida ancha o'xshashliklar borligini aniqlashmoqda. Masalan, Shimoliy Amerikadagi hindular shaman diniga sig'inadi. Bu din esa turklarning Islomdan avvalgi dinidir. Davomini surishtirsangiz, hozir ham Sibirda yashaydigan qator turkiy xalqlar shaman diniga e'tiqod qilishadi.

Amerika hindulari madaniyatida bo'ri har doim katta o'rin tutgan. Ammo yevropaliklar madaniyatidan farqli o'laroq, ularning madaniyatida bo'ri ijobiy ramz sifatida gavdalanadi. Ko'plab tub amerikalik afsonalarda bo'ri qabila himoyachisi sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, Shoshon folklorida bu jonivor har doim ayollar va yosh bolalarning homiysi sifatida talqin etiladi.

Qadimgi afsonaga ko'ra, Shoshon qishlog'iga dushmanlar hujum qilishadi. Bolalar, asosan qizlar va onalari qishloqni chor tarafdin o'rab turgan o'rmon tomonga qochishadi. Butun qavmni qirib yuborishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan dushmanlar ularning orqasidan quvishadi. Qochqinlar o'rmonga yashirinishga uringan damlarda bir to'da bo'rilarga duch kelishadi. Lekin bo'rilar ularga hujum qilmaydi, aksincha, barchasini himoyalash maqsadida yon-atroflarini o'rab oladi va dushmanga qarshi jangga kirishadi. Shunday qilib, bo'rilarning sharofati bilan bir qavm omon qoladi va qadrdon qishlog'iga sog'-salomat qaytadi. Alqissa, bo'ri mahalliy aholi totemiga aylanadi.

Turklarda ham ko'k bo'ri totem sanaladi. Ularning bayrog'ida bo'ri ramzi o'z aksini topgan.

Amerikalik hindularda DNK tekshiruvi o'tkazilganda, haqiqatan ham, ular turklar bilan qarindosh ekanligi aniqlangan. Shuningdek, asl kelib chiqish joylari Oltoy o'lkasi ekanligi ma'lum bo'lgan.

Nyu-York universitetining antropologiya bo'yicha professori Laura Tedesko O'zbekistonga kelganida bir jurnalist unga "Qoraqalpoqlarning taqinchoqlari tub amerikaliklarnikiga o'xshaydi, bunga qanday qaraysiz?" degan savol beradi. Laura Tedesko aynan shundan taajjubda ekanligini yashirmaydi.

– Darvoqe, men bunga Nukusda bo'lganimda ishonch hosil qildim, – deydi u. – Qoraqalpoqlarning me'moriy unsurlari, badiiy san'at asarlari, musiqalari Qo'shma shtatlarda yashaydigan tub aholilarnikiga o'xshashligini angladim. Ammo amerikalik hindular bilan qoraqalpoqlar o'rtasida qadimiy qarindoshlik aloqalari mavjudligini bayon etish katta tavakkalchilikni talab qiladi. Ayni chog'da, uni

inkor etib ham bo'lmaydi. Demak, bu masalada chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Pinar Fedakar xonim ham o'z asarida tub amerikaliklar bilan turkiy xalqlarning, chunonchi, qoraqalpoq xalqi og'zaki ijodida mushtarak jihatlar borligiga e'tibor qaratgan.

Umuman olganda, tub amerikaliklarning turkiylarga qarindoshligi masalasi bo'vicha talav ilmiv ishlar olib borilgan. Tanidli etnograf T.Kreber esa, asteklar aslida turkiylar ekanligini aniqlagan.

Zero, asteklar o'z nomlarini oq rangli ilon xudolar bilan bog'lashadi va bu jonivorni o'zlarining totemi hisoblashadi. "Astek" so'zini muomalaga aslida yevropaliklar kiritishgan. Qavm ahli o'zlarini "aksilan" deb atagan. "Ak" ularning tilida "oq", "silan" esa "ilon" degan ma'noni anglatadi. "Aksilan" atamasini asteklar talaffuzi bilan turkiycha "oq ilon", "aq jilan", "aq zilan" deb taqqoslab ko'rsangiz, hammasi o'z-o'zidan oydinlashadi.

Maya tilida "ma" salbiy qo'shimchasi mavjud. U zamonaviy turkiy tillarda ham uchraydi (masalan: borma, turma). Taqvimning birinchi oyi "yash-kin" deb nomlanadi, u bizning talqinimizda "yosh kun" (yangi kun) degani bo'ladi. Siu tilida "tan" so'zi mavjud bo'lib, u erta tongni bildiradi va turkiy tillardagi "tong" so'ziga to'g'ri keladi.

Etrusk tili olimlar uchun katta jumboq bo'lib qolmoqda. Ushbu tildan hozir deyarli barcha turkiy xalqlar uchun tushunarli bo'lgan bir nechta so'zni keltiramiz: atta – ota, anna – ona, aqlan – o'g'il (o'g'lon), kilan – kelin, su – suv, yet – et, go'sht, bult – bulut, qis – qiz, buil – bu yil, qatn – xotin, engen – yenggan (g'olib bo'lgan), at – ot (miltiqni), ar – er, er – yer, ut – o't (yong'in), kn – kun (quyosh). Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Mashhur qoraqalpoq shoiri Ibroyim Yusupovning "Qoraqalpoq haqida so'z" she'rida shunday satr bor:

Barcha xalqni qoraqalpoqdan chiqarib,

O'z tarixini boshlar Odam-Otadan...

Bu bilan biz amerikalik hindular qoraqalpoqlardan chiqqan demoqchi emasmiz, faqat bir haqiqatni eslatmoqchimiz: qoraqalpoqlar ham o'z tilini, tarixini, urf-odatini yaxshi saqlab kelayotgan turkiy xalqlardan biridir. Binobarin, ushbu yo'nalishda ham ilmiy ishlar olib borilsa, olamshumul yangiliklarga yo'l ochilishi ehtimoldan xoli emas. Har qalay, tariximizni 2-3 ming yillar doirasida chegaralab qo'ymay, undan oldingi davrlarga ham nazar solsak, foydadan xoli bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Мамбетирзаева Н. Миллий маъний мийрасларимиз-мактанышимиз. / «Еркин Қарақалпақстан» газетасы, 13-октябрь 2015-жыл №124 (157421).
2. Mehmet Serdar Kaygisiz. Karakalpak Türklerinin Er Ziyvar Destanı (İnceleme-Metin). Antalya, 2020.
3. Pinar Donmez Fedakar. Karakalpak efsaneleri (inceleme-metinler). - Izmir, 2012.
4. Çise Selver Rahmani. Köroğlu Destanı'nın Karakalpak Varyantı Awezhan Kolu Kolları (İnceleme-Metinler). Antalya, 2018.
5. Şeyma Gürleyen. Mespatsa destanı ve türkiye türkçesine aktarımı üzerine // «Түркий халықлар фольклоры, әдебияттануы және тил билиминин әхмийетли мәселелери: улыўма уйғынлық және миллий өзгешелик» атамасындағы халықаралық илимий-теориялық конференция материаллары. - Нөкис, 2019. - Б.16-21.
6. Zeynep Begüm OK. Köroğlu Destanı'nın Karakalpak Varyantı Äwez'in Evleniş, Arap Rayhan, Qırmandalı, Bazergen Kolları (İnceleme-Metinler). Antalya, 2018.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада Qoraqalpoq xalqi badiiy og'zaki ijodiyoti va jahon folklorining bazi uzviy bog'liqlik tomonlari turk olimi Pinar Fedakar mehnatlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, qoraqalpoq folklorining yangicha nuqtai nazarda o'rganish masalasi haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются некоторые аспекты взаимосвязи художественного устного творчества каракалпакского народа с мировым фольклором на материале работ турецкого ученого Пинар Федакар. Также обсуждался вопрос изучения каракалпакского фольклора с новой точки зрения.

SUMMARY. In the article, some aspects of the interrelation between the artistic oral creativity of the Karakalpak people and world folklore are analyzed based on the works of the Turkish scientist Pinar Fedakar. Also, the issue of studying Karakalpak folklore from a new point of view was discussed.

ЖУРНАЛИСТ СУРИШТИРУВИ ЖАНРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

П.Алламбергенова – докторант

Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети

Таянч сўзлар: журналист суриштируви, тасниф, репортёр, жиноят, текширув, жанр.

Ключевые слова: журналист-расследователь, классификация, репортер, преступление, расследование, жанр.

Key words: investigative journalist, genre, classification, reporter, crime, investigation, genre.

Анъанавий журналистика илмида ва миллий журналистикада журналист суриштируви асосан журналистик тадқиқотнинг синоними сифатида

қўлланиларди. Шу боис унинг асосий вазифаси ижтимоий ҳаётнинг турли муаммолари юзасидан мақола, очерк ёки фельетон ёзишда таҳлилга тор-